

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JISMJNIY VADANIYAT VA SPJRTNING RIVOJLANISHIDA JISMONIY MADANIYAT SHAXS IJTIMOIYLASHUVINING ASOSIY OMILI



Madaminov B.Sh

Namangan davlat universiteti

Jismoniy madaniyat kafedrasи dotsenti, p.f.n

Annotatsiya. Maqolada shaxsnинг ijtimoiylashuv jarayonida jismoniy madaniyatning tutgan o'rni va va ushbu jarayonda mavjud bo'lgan muammolar haqida fikr bildirilgan. Yoshlarda jismoniy madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish dolzarbli ta'kidlangan. O'zbekistonda sportga e'tibor ajdodlarimizdan me'ros ekanligi ta'kidlangan xolda, sport xodisasi kam o'rganilgan sohalardan biri bo'lib, ayniqsa o'quvchi-yoshlarining jismoniy madaniyatini shakllantirish masalasi yaxlit tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmaganligi xakida xulosa beriladi.

Kalit so'zlar jismoniy madaniyat, psixologik, sotsiologik, antropologik, insonlararo munosabatlar, madaniy va estetik jihatlar, ijtimoiy faoliyat, izlanishlar, zamonaviy, me'yoriy-huquqiy,

АННОТАЦИЯ

В статье рассмотрены роль физической культуры в процессе социализации личности и проблемы существующие в этом процессе. Подчеркивается актуальность формирования и развития физической культуры среди молодежи. При этом отмечается, что внимание к спорту в Узбекистане унаследовано от наших предков, но в то же время феномен спорта является одной из наименее изученных областей, особенно вопрос влияние физической культуры на социализацию студентов не изучена как комплексный объект исследования.

Ключевые слова: физическая культура, психологические, социологические, антропологические, межличностные отношения, культурные и эстетические аспекты, социальная активность, исследования, современность, нормативно-правовые акты.

Globallashgan dunyo manzarasida "milliy", "diniy", "irqiy", "gender" tengsizliklar mavjudligi ijtimoiy mazmun kasb etib, u zamonaviy axborot jamiyatidagi jarayonlarning mohiyati, tendensiyalari va sabablarini jismoniy madaniyat va sport orqali ijobjiy tomonga mustahkamlash, kishilik jamiyatining ijtimoiy-ruhiy kayfiyatiga bo'lgan salbiy ta'sirlarni ushbu jarayon orqali bartaraf etishga bo'lgan ob'ektiv zarurat tufayli yuzaga kelmoqda.

Dunyoda jismoniy madaniyat masalalari o'rganilar ekan, uning ijtimoiy fanlar tizimida tutgan o'rni psixologik, sotsiologik, antropologik, falsafiy va madaniy mazmunda ilmiy tadqiqotlarning mavzusi bo'lib qolmoqda. Sotsiologik adabiyotlarda "jismoniy madaniyat – bu jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida uning umumiyligi qismi bo'lgan madaniy jarayonlarida insonning maqsadli jismoniy kamol topishidagi ratsional jarayondir"[2]. Yosh avlodni xalqimizning ko'p asrlik an'analarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash ishidagi rolini oshirish kabi islohotlar natijasida jismoniy madaniyat va sport orqali vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan barkamol avlodni voyaga etkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish tizimi yuzaga keldi. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish» [1] kabi muhim vazifalar belgilangan. Bu borada jismoniy tarbiya va sport sohasida aholi keng qatlamini sport bilan shug'ullanishga va sog'lom turmush tarzini yuritishga jalb etish, jismonan sog'lom avlodni tarbiyalash, sport industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish, mamlakatimizning xalqaro sport maydonlaridagi yutuqlarini targ'ib qilish va uning keng e'tirof etilishiga qaratilgan yagona davlat siyosati jarayonlarining sotsial prognozini amalga oshirish dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-son, "Madaniyat va sport sohasida boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 15 fevraldag'i PF-4956-son Farmoni, «YOshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi 2017 yil 5 iyuldag'i PF-5106-son, "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2018 yil 5 martdag'i PF-5368-son, 2018 yil 27 iyundagi "Yoshlar – kelajagimiz" Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Demak, shaxs-individ ijtimoiy xususiyatlarining yaxlit majmui bo'lib sotsial taraqqiyot va inson xatti-harakati, muomalasi vositasida sotsial munosabatlar tizimida o'z o'rniga ega bo'lish mahsuli hisoblanadi. Shaxsning sotsial rollarini bajarishi bir tekis kechmaydi. Bu jarayon ichki-rolli, rollararo, shaxsiy-rolli konfliktlarni keltirib chiqarish mumkin. Chunki, dinamik jamiyatlarda inson tomonidan bajarilayotgan roller rolli talablar va kutishlarga mos kelmasligi mumkin.

Sotsial rol orqali shaxs jamiyat bilan munosabatga kirishadi. Sotsial rol yordamida biz jamiyatning shaxsga va aksincha shaxsni jamiyatga ta'siri mexanizmalarini aniqlab olishimiz mumkin. Bu borada mumtoz sotsiologlar E.Dyurkgeym, M.Veber tomonidan taklif etilgan individ va jamiyat munosabatlari sotsiologiyaning markaziy muammolaridan biri sanaladi. Ularning fikricha sotsial voqelik individual voqelikka nisbatan o'zgacha xususiyatga ega. Dyurkgeym «individual voqelik»ni «sotsial faktlar» va «individual ongni «jamoaviy ong»ga qarshi qo'yadi. Bu ikki voqelikda jamoaviylik va individuallik kurashi davom etadi.[7] Chunki, jamoaviylik va individuallik bir-birini to'ldirmaydi, aksincha, bir-biriga zid mutanosiblikda mavjud bo'luvchi tushunchalardir.

Psixoanaliz zamonaviy sotsiologiya va psixologiyaning taraqqiyotida muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Psixoanaliz sportotiga ko'ra, har qanday ruhiy hodisa uch jihatdan, ya'ni;

- dinamik – turli ruhiy kuchlarning o'zaro ta'siri va to'qnashuvi natijasi;
- energetik – to'qnashuv jarayonida ichki kuch-quvvatni ozodlikka chiqarilishi va uning keyingi mavjudligi;
- tuzilmaviy – shaxs ruhiy tuzilmasi bilan bog'liq holda yoritilishi shart.

«Men» shaxs ruhiy strukturasi sifatida istak va imkoniyatni moslashtirishga va insonni ziddiyatdan chiqishiga ko'maklashadi. «U» esa turli ruhiy kuchlar ta'sirida yuzaga chiqqan quvvat, ruhiy kuch makoni, jo'shqin hissiyotlar va ishtiyoqlar yig'indisini tashkil etadi. Bu arxaik, an'anaviy shaxsga xos bo'limgan butunlay ongsiz, ruhiyatning tashqi dunyo bilan aloqasi bo'limgan sof subektiv qismidir. «U» ehtiyojlarning darhol qondirilishga intiladi va bunda «MEN» bilan to'qnash keladi. «MEN» o'z o'rnila «U» va tashqi muhit, ishtiyoq va qoniqish o'rtasida vositachi bo'ladi. «U» butkul ongsizlik bo'lsa, «MEN» reallik tamoyillariga bo'ysundirilgan va «U»ning irratsional impulslarini jilovlab turadi. Uchinchi ruhiy tuzilma «Mutloq-MEN» bo'lib, u ongga ijtimoiy me'yor, tarbiyaviy taqiq va rag'bat berish orqali shakllanadi. Individning ahloqiy me'yorlari manbasi sifatida ishtirok etadi. «MEN» ongsiz ruhiy faollikning o'ziga xos shaklidagi ruhiy himoyani ishlab chiqadi. Bu himoya vaqtinchalik bo'lsa-da ziddiyatni yumshatish, tang holatdan chiqish, aniq hayotiy vaziyatlarda esa voqeа va hodisalar mohiyatini o'zgartirishga asoslanib, insonning o'zi to'g'risidagi ideal tasavvurga zarar etkazilmaydi. Bu himoya shakllari quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

- Rad etish - ko'ngilsiz voqelikka «ko'z yumish», uning mavjudligini rad etishga yoki «Mutloq-Men»ga tahdid solayotgan xatarni susaytirishga intilish hisoblanadi. Rad etishning ijobiy jihatlaridan tashqari salbiy xususiyatlari ham bo'lib, unda inson voqelikdan juda uzoqlashib ketishi mumkin.

- Bosim - agarda rad etish tashqi turkilarga yo'naltirilgan bo'lsa, bosim «Mutloq-Men» tomonidan kelayotgan ichki impuls va tahdidlarni zararsizlantiradi. Bunda ko'ngilsiz kechinmalar ongsizlik tomon siqib chiqariladi va real xulq-atvorga ta'sir ko'rsatmaydi. Asosan shaxs tomonidan qabul qilingan ahloqiy qadriyat va me'yirlarga zid hayollar, istaklar ichki kuch yordamida bostiriladi.

- Proeksiya - inson o'zida mavjudligini tan olmaydigan ko'ngilsiz sifat va xususiyatlarni boshqalarga xos deb bilish.

- Ratsionallik - xavotir tug'diruvchi va aloqiy me'yirlarga zid keluvchi har qanday xatti-harakatni ongli oqlash. Bunda individ biror yumushni bajarishni xohlamaslik bilan izohlashi nazarda tutiladi.

- Intellektuallashtirish - hissiy tahdidli vaziyatlardan mavhum va intellektual yondashuv ko'magida chiqib ketishga intilishdir.

- Aks ta'sirni shakllantirish - xatti-harakat motivlarini o'zidan va boshqalardan yashirishga intilish.

- O'rmini to'ldirish - bilvosita narsalar bilan qisman qoniqish.

Shaxs nazariyalarida gumanistik yo'nalishning rivojlanishi amerikalik psixolog Abraham Maslou (1908-1970) nomi bilan bog'liq. Gumanistik g'oyaning diqqat markazida – shaxsning shakllanishi, o'zini imkon qadar ijodiy ro'yobga chiqarishili masalasi yotadi. Gumanistik nazariya psixoanaliz va bixevoirizmga zid ravishda rivojlandi. Bunda individuallik integrativ butunlik sifatida o'rganiladi va insonni tushunishda hayvonlarda tajriba o'tkazilish yaroqsizligi ta'kidlanadi. Mumtoz psixoanalizdan farqli ravishda gumanistik nazariya aslida insonning sahovatli va neytralligini, tajovuz va zo'ravonlik muhit ta'sirida yuzaga kelishini asoslab berdi [10]. Maslou bo'yicha nisbatan universallik insoniy sifatlarga xos kreativ (ijodkor)lik bo'lib, u tug'ma bo'ladi va atrof-muhit ta'sirida rivojlanadi.

Maslou konsepsiyasining markazida – insoniy ehtiyojlar to'g'risidagi tasavvur yotib, ular quyidagi darajalardan iboratdir:

- Fiziologik ehtiyojlar;
- Xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj;
- Mehr va mansublikka bo'lgan ehtiyoj;
- Boshqalarni va o'zini hurmat qilish ehtiyoji;
- O'zini ro'yobga chiqarish ehtiyoji.

Xulosa, sotsiologiya shaxsni tabiat mahsuli sifatida emas, balki sotsial munosabatlar mahsuli, jamiyat in'ikosi sifatida o'rganadi. SHaxs sotsial o'zaro ta'sir va munosabatlarning birlamchi omili hisoblanadi. SHaxs sotsiologiyasining asosiy masalasi shaxsning shakllanish jarayoni va uning ehtiyojlarini qondirilishi, sotsial birlikda rivojlanishi va amal qilish, jamiyat bilan shaxs aloqlari, shaxs va guruhlar,

shaxsning sotsial fe'l-atvori va ularni tartibga solish qonuniyatlari bilan chambarchas bog'langan. Shaxs insoning jismoniy tabiatini emas, balki, uning sotsial sifatini namoyon qiladi. SHaxs ehtiyojlari uning manfaatlari orqali nomoyon bo'ladi. Manfaatlar esa maqsadli faoliyatga yo'llaydi. Kishilarning sotsial munosabatlari ularning xulqlarida, eng avvalo, manfaatlar tizimida namoyon bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida shaxs faoliyatining maqsadi, mazmuni va mohiyatini ifodalaydi. Manfaatlarning maqsadga aylanishi shaxs faoliyati motivining oliv darajasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI :

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sodn «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

2.Jurbina A.D. Sotsiologicheskie aspekty fizicheskoy kultury i sporta // Nauchnyi vestnik MGTU GA. Seriya: Istorija. Filosofiya. Sotsiologiya – 2007. № 113. – S. 146.

3. Byulleten Ministerstva Zdravooxraneniya RUz. 18 noyabrya 2004 g.

4. Veber M. Izbrannye proizvedeniya. M., 1990.

5.Sotsiologiya: Uchebnik /Pod red. prof. YU.G. Volkova. Izd. 2-e, ispr. i dop.– M.: Gardariki, 2003. – S. 102.

6.Sotsiologiya: Uchebnik /Pod red. prof. YU.G. Volkova. Izd. 2-e, ispr. i dop.– M.: Gardariki, 2003. – S. 102.

7.Dyurkgeym E.Sotsiologiya. Ee predmet, metod, prednaznachenie / Per. s fr., sostavlenie, posleslovie i primechaniya A. B. Gofmana. – M.: Kanon, 1995. - 352 s.

8.Abdukhamidovich, Moydinov Iqboljon. "DEVELOPING TECHNICAL TRAINING OF WRESTLERS WITH SPECIAL MOVING GAMES." Open Access Repository 9.9 (2023): 130-136.

9.Abdukhamidovich, Muydinov Ikboljon, Sarukhanov Arsen Albertovich, and Azizov Mukhammadjon Azamovich. "Physical culture as a motor factor of mental performance of adolescents." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.11 (2022): 128-134.

10.Akramjonovich, Y. I., Azamovich, A. M., & Ilyasovich, M. S. (2022). Developing human thinking and moving speed through table tennis. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(4), 164-165.

11.Umidovich, A. B. (2022). Legal grounds for the development of the sports industry in uzbekistan. Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(11), 46-49.

12.Urinboevna, U. Z., Burkhanovich, D. B., & Ismailovna, Y. F. (2022). New technologies for the development of strength qualities Youth. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(11), 220-224.

13.Саруханов, А. А., Азизов, М. А., & Аминов, Б. У. (2023, January). Новые технологии для развития силовых качеств у студентов. In international scientific and practical conference " the time of scientific progress" (Vol. 2, No. 1, pp. 217-225).

14.Dexqonov, B. (2023). Preparation of future physical education teachers for innovative activities. Models and methods in modern science, 2(12), 82-86.

15.Кувватов У.Т Якубжонов, И. А., & Шокиров, Ш. Г. (2022). " Развитие воспитательной работы в студенческой футбольной команде.". In International conference: problems and scientific solutions (Vol. 1, pp. 140-147).

16.Umidovich, A. B. (2023). Unusual volleyball training sessions. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(06), 1-4.

17.Umarova, Z. U., Mirzarakhimovich, R. S., & Tursunovich, K. U. (2022). Sports and Great Heroes. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress, 1(4), 141-143.

18.Anvarovich, I. S., Tokhirovich, K. T., & Tursunovich, Q. U. (2022). Use problem-solving techniques in school gymnastics. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(4), 512-513.

19.Abduhamedovich, M. I., Mansurovich, M. S., & Usmonovich, A. U. (2022). Selection of talented wrestlers and education of physical perfection in the process of wrestling activities in sports schools. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(4), 166-167.

20.Ahmedov, U. (2019). Interaction patterns in elt teaching: group work and pair worK. Theoretical & Applied Science, (12), 170-172.

21.Sultonov, Usmon Ibragimovich. "METHOD OF CONTROLLING THE TRAINING PROCESS OF LONG-DISTANCE RUNNERS." Eurasian Journal of Academic Research 2.3 (2022): 132-137.

22.Ibragimovich, Sultonov Usmon. "DYNAMICS OF MORPHOLOGICAL INDICATORS IN THE PHYSICAL DEVELOPMENT OF LONG-DISTANCE RUNNING." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE &

INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.01 (2022): 129-132.

23.Ibragimovich, Sultanov Usmon. "DYNAMICS OF FORMATION OF PHYSICAL DEVELOPMENT AND PHYSICAL TRAINING OF LONG DISTANCE RUNNERS." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 7.6 (2019)

24.Ziyayev, Abdurakhmon. "SPORTS TOURISM AS A MODULE OF ELECTIVE COURSES OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS SCIENCES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 6 (2023): 707-712.

25.Abdullaevich, Ziyaev Abdurakhmon. "Development of General Physical Qualities of Girls Football Players in Higher Education Institution." European Journal of Economics, Finance and Business Development 1.9 (2023): 1-6.

26.Abdullayevich, Ziyayev Abduraxmon. "THE EFFECTIVENESS AND METHODS OF DEVELOPING THE TECHNIQUE OF PLAYING YOUNG BASKETBALL PLAYERS THROUGH SPECIAL EXERCISES." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 123-125.

27.Abdullaevich, Ziyaev Abdurakhmon. "Development of Endurance Qualities of Young Football Players with The Help of Types of Athletics Running." European Journal of Economics, Finance and Business Development 1.9 (2023): 7-12.

28.Хамрақулов, Тулқин Тохирович. "РАЗВИТИЕ СИЛОВОЙ ВЫНОСЛИВОСТИ У СТУДЕНТОВ." INNOVATIVE DEVELOPMENT IN THE GLOBAL SCIENCE 2.7 (2023): 255-261.

29.Toxirjonovich, Xamraqulov To'lqin. "ANALYSIS OF ISSUES OF LEGAL ACTION FOR VIOLATION OF AGREEMENTS WITH ATHLETES IN UZBEKISTAN AND FOREIGN COUNTRIES." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.09 (2022): 175-178.

30.Toxirjonovich, Xamroqulov To'lqin. "Innovative technologist of training students in higher educational institutions of sports and health in uzbekistan." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 106-108.